

YOSHLAR RUHIYATIGA MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLARNING TA'SIRI VA UNING PSIXOLOGIK FENOMENLARI

Xudoynazarova Nodira Shaydullayevna

Termiz davlat universiteti psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yoshlarni ruhan tetik va barkamol shaxs sifatida shakllanishida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning psixologik xususiyatlari hamda psixologiya va manaviyatning uyg'unligi borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: psixologiya, vatanparvar, fidoyilik, do'stlik, motiv, hissiyotlar, jamoa, yuksak ma'naviyat, qadryatlar.

KIRISH

Bugun biz Yangi O'zbekistonda, xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor yoshlari kelajagiga buyuk umidlar bilan ishonch bildirayotgan va shu asnda ular uchun yaratilyotgan imkoniyatlar maskani bo'lgan O'zbekiston deb atalmish jannatmakon yurtda ma'naviyat tuyg'usining shaxs psixologiyasiga ta'siri beqiyosdir.

Psixologiya so'zi yunonchdan "ruh", "jon" degan ma'noni anglatadi, ma'naviyat esa "ma'nolar yig'indisi" yani bu ikkala so'zlarining birikishidan "ruhiyatni ma'nolash" tushunchasini hosil qiladi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shunday ekan, ma'naviy ozuqaning shaxs ruhiyatiga ta'siri beqiyosdir.

Yoshlar ruhiyatining so'g'lom va tetik bo'lishida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlarga ma'naviyatni singdirish natijasida ularda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qat'iyatlilik, mas'uliyatlilik kabi fazilatlar barqarorlashadi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yoshlarda g'oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik, jamoachilik, insonparvarlik, o'zaro yordam, hamkorlik tuyg'ularini mukammal bosqichga ko'taradi. Ana shularni kuzatib tadqiq etgan psixolog L.I. Umanskiy tashkilotchilik tuyg'usini psixologik topqirlik deb nomlab uni amaliy aql-idrokda o'z ifodasini topadi deb ta'riflaydi. Tashkilotchilik yoshlarda tengdoshlariga emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ham beradi deydi psixolog o'z fikrlarida.

Yoshlar hayotida ma'naviy ma'rifiy tadbirlarni rivojlantirish orqali ularda tabiat, san'at, adabiyot, madaniyat, ijtimoiy hayot go'zalliklarini payqash, idrok qilish, sevish, ulardan ta'sirlanish, ma'naviy ozuqa olish hislatlari paydo qiladi. Ularning psixologiyasida mayin sado, yoqimli nido, qalbni to'lqinlashtiruvchi musiqa, nozik

his-tuyg'u ezgilik hislari, mayllari kuchayadi. Ayniqsa, estetik hislar ularning qo'pol, noxush, xunik va yoqimsiz qiliqlarining yo'qolishiga yordam beradi. Shaxsning o'z ichki imkonyatlarini ro'yobga chiqarishga intilish faoliyatning barcha turlarida ma'naviy va ruhiy jihatdan o'zini anglashini yanada takomillashtiradi. Yoshlarda o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga intilishda ma'naviy ma'rifiy tadbirlarning o'rni beqiyos. Chunki ijodkorlik u san'at, adabiyot bo'lishidan qattiq nazar inson ruhiyatini ko'tarish uchun xizmat qiladi. Maqsadlarning ro'yobga chiqishi uchun ma'naviyat motivatsiya vazifasini o'taydi.

Ma'daniyatlik ,tarbiya ko'rganlik, odoblilik insonning tashqi qiyofasida ham namoyon bo'ladi. Tashqi ko'rinishdagi nafis go'zallikni yaratish uchun dag'allik, qo'pollikni tarbiyalay olishimiz lozim.

Psixologik yosh davrlarda yani antogenezda shaxsni ichki motivi orqali uning kasb tanlashida ham ma'naviyatning o'rni aytadigan bo'lsak, maktabgacha tarbiya yoshidanoq ma'naviy-marifiy tadbirlarga yoshlarni jalb qilish, ularni qiziqtirish orqali orzu umidlarini ro'yobga chiqarish muhim sanaladi.

O'spirinlarda esa tabiat, san'at, adabiyot, madaniyat, ijtimoiy hayot go'zalliklarini payqash, idrok qilish, sevish ulardan ta'sirlanish, ma'naviy ozuqa olish hislari paydo bo'ladi. Ularda estetik his-yuyg'u o'ziga xos qarashlar va nuqtai nazarning o'sishida ilm-fan va texnikaning rivoji, tafakkurning takomillashuvi, taqlidchilik bilan birga ma'daniyat va san'atning ham o'rni beqiyos.

Bugungi shiddat bilan rivojlanyotgan zamonda yoshlarni turli yod g'oyalarga berilib ketishining oldini olish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda o'z kelajagi poydevorini mustahkam yaratishda, ruhan sog'lom avlodni barpo etishda ma'naviy ma'rifiy tadbirlaning ko'lamini oshirish davr talabidir. Shunday ekan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yoshlar psixologiyasida ezgulik kurtaklari bo'lib xizmat qiladi. Zero, ma'naviy yetuk, ruhan sog'lom yoshlar yurtimizning porloq kelajagidir. Ularning komil shaxs bo'lib shakllanishida psixologiya va ma'naviyatning o'rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. I.A.Karimov YUKSAK MA’NAVIYAT - YENGILMAS KUCH 2008 yil
2. Narkulov, X. I. (2023). INTELLEKT VA TAFAKKURNING SHAXS MA’NAVIY VA AXLOQIY RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(16), 272-274.
3. KHUDOYNazarova, N. (2023). FEELINGS OF FEAR IN WOMEN. *World Bulletin of Social Sciences*, 29, 76-78.
4. Sharafullaeva, S. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ADULT PERIOD. *World Bulletin of Social Sciences*, 29, 49-51.
5. Xudoynazarova, N. (2022). O‘SMIRLAR XULQ-ATVORIDA ALTRUIZM RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Science and innovation*, 1(B8), 1702-1704.
6. Choriyeva, S. A. (2023). O‘SMIRLARDAGI MUOMALA MADANIYATINING OILAVIY MUNOSABATLARDAGI O‘RNI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(17), 988-991.
7. Abdullayeva, Z. I. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATION STYLE IN A TALENTED PERSON. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(17), 302-305